



INNOVATIVE  
WORLD

ISSN: 3030-3591

# ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

SHARQ TIBBIYOT VA TABIIY FANLAR  
JURNALI



Scientific Journal



- Medicine
- Pharmaceuticals
- Biology
- Chemistry
- Geology
- Agriculture



+998 33 5668868  
[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)



## ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

Volume 3, Issue 2  
2026

Journal has been listed in different indexings



The official website of the journal:


[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'zbekiston-2026

Volume 3 Issue 2 | 2026 |

Page | 2

Tel: +99833 5668868 | Tg: t.me/Anvarbek\_PhD



## QURUQ KO'Z" SINDROMI SABABLARI, OLDINI ILISH VA DAVOLASH USULLARI Ro'zmatova Sarvaraxon Salimjonovna<sup>1</sup> Yahyoyev Rahmonali<sup>2</sup>

Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti talabasi, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 64-uy, Farg'ona shahri, O'zbekiston, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: [info@camuf.uz](mailto:info@camuf.uz)<sup>1,2</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada quruq ko'z sindromining kelib chiqish sabablari, patogenez, klinik belgilari, tashxis usullari va zamonaviy davolash metodlari batafsil tahlil qilinadi. Ko'z yosh plyonkasining fizik-kimyoviy tarkibi, uning barqarorligini ta'minlovchi lipid, suvli va mutsin qatlamlar faoliyatidagi buzilishlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalaridan ortiqcha foydalanish, meibom bezlari disfunktsiyasi, ekologik omillar va gormonal o'zgarishlar sindrom rivojlanishidagi roli ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada diagnostikaning zamonaviy yondashuvlari — Shirmer testi, BUT testi, fluorestin diagnostikasi va meibografiya usullari haqida ma'lumot beriladi. Davolashda sun'iy ko'z yosh preparatlari, yallig'lanishga qarshi terapiya, IPL va fizioterapiya usullarining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot ko'z salomatligini saqlashda profilaktika choralarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** quruq ko'z sindromi, ko'z yosh plyonkasi, lipid qatlam, suvli qatlam, mutsin qatlam, meibom bezlari, meibom disfunktsiyasi, BUT testi, Shirmer testi, fluorestin testi, ko'z qizarishi, kompyuter ko'z sindromi, kontakt linza, IPL terapiyasi, sun'iy ko'z yoshi, keratit, kornea zararlanishi, yallig'lanish, oftalmologiya, ko'rish charchoqligi, evaporativ quruqlik, hiposekretor quruqlik, ekologik omillar, ko'z gigiyenasi, profilaktika.

**Аннотация.** В данной статье подробно рассматривается синдром сухого глаза, его этиология, патогенез, клинические проявления, методы диагностики и современные подходы к лечению. Особое внимание уделено нарушению стабильности слёзной плёнки, изменениям в её липидном, водном и муциновом слоях, а также роли дисфункции мейбомиевых желёз. Анализируются факторы риска, такие как чрезмерное использование цифровых устройств, влияние окружающей среды, гормональные изменения и системные заболевания. Представлены диагностические методы — тест Ширмера, проба на разрыв слёзной плёнки (BUT), флюоресцеиновая окраска и мейбография. Описаны современные методы терапии, включая искусственные слёзы, противовоспалительные средства, физиотерапевтические процедуры и IPL-терапию. Статья подчёркивает важность профилактики для предотвращения осложнений и сохранения здоровья глаз.

**Ключевые слова:** синдром сухого глаза, слёзная плёнка, липидный слой, водный слой, муциновый слой, дисфункция мейбомиевых желёз, тест Ширмера, BUT-тест, флюоресцеиновая проба, покраснение глаз, зрительная

усталость, компьютерный зрительный синдром, контактные линзы, искусственная слеза, воспаление, кератит, повреждение роговицы, офтальмология, факторы риска, испарение слезы, гипосекреторная форма, профилактика, цифровые устройства.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of Dry Eye Syndrome, its etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic methods, and modern treatment strategies. The structure and function of the tear film, including lipid, aqueous, and mucin layers, are explained in relation to tear film instability. The role of meibomian gland dysfunction, environmental influences, prolonged screen exposure, hormonal changes, and systemic diseases in the development of the syndrome is emphasized. Diagnostic techniques such as the Schirmer test, Tear Break-Up Time (TBUT), fluorescein staining, and meibography are described in detail. The article also highlights various therapeutic approaches, including artificial tears, anti-inflammatory therapy, warm compresses, meibomian gland massage, IPL therapy, and lifestyle modifications. Preventive measures for maintaining ocular surface health and reducing the risk of complications are extensively discussed.

**Keywords:** dry eye syndrome, tear film, lipid layer, aqueous layer, mucin layer, meibomian gland dysfunction, Schirmer test, TBUT, fluorescein staining, ocular redness, digital eye strain, evaporative dry eye, aqueous-deficient dry eye, artificial tears, ocular inflammation, keratitis, corneal damage, ophthalmology, environmental factors, screen time, contact lenses, ocular surface disease, prevention, ocular discussed.

**Kirish.** Quruq ko'z" sindromi - bu ko'z yoshi yetishmovchiligi yoki noto'g'ri ajralishi tufayli shox pardaning holati o'zgarib, ayniqsa, ko'rish paytida noqulaylik hissini keltirib chiqaradigan kasallikdir. Kasallik ko'z yoshi suyuqligi ishlab chiqarilishining kamayishi yoki uning sifat tarkibining o'zgarishi tufayli yuzaga keladi. "Quruq ko'z" sindromining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: kontakt linzalarini uzoq vaqt yoki noto'g'ri taqish; ko'z yoshi hosil bo'lish jarayonlarini buzuvchi dori preparatlaridan foydalanish (masalan, tomir kengaytiruvchi yoki antigistamin preparatlar); miltillash chastotasining pasayishiga olib keladigan uzoq muddatli ko'rish yuklamalari (televizor tomosha qilish, kompyuterda ishlash); ko'rishning lazerli korreksiyasi; chang, tutun, quruq issiq havo kabi shox pardaning mexanik qo'zg'atuvchilari; organizmning yoshga bog'liq o'zgarishlari; lipidlar yetishmasligi bilan noto'g'ri ovqatlanish. "Quruq ko'z" sindromining xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi: Ko'z yosh oqishi, ko'zdan shilimshiq ajralishi ko'zlar achishishi, ko'rish aniqligining pasayishi, yorqin yorug'likka sezgirlik ko'zlarning qizarishi, xira ko'rish, ko'zlar qichishi.

**Diagnostika.** "Quruq ko'z" sindromini davolash usulini aniqlash uchun okulist quyidagi tekshiruvlarni o'tkazadi: shox parda, konyunktiva va ko'z qovoqlarining erkin chekkalarini biomikroskopik tekshirish; konyunktiva va shox parda qismlaridagi o'zgarishlarni aniqlaydigan maxsus tomchilardan foydalanish. Sistema kollagenozini istisno qilish uchun revmatolog maslahati talab qilinishi mumkin. "Quruq ko'z" sindromini davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'rnini

bosuvchi terapiya preparatlaridan foydalanish ("sun'iy ko'z yoshlari"); antibakterial preparatlarni qo'llash; polivitaminlar qabul qilish; silikon yoki kollagen probka yordamida ko'z yosh kanalchasini vaqtincha yopish. "Quruq ko'z" sindromini davolashning yo'qligi quyidagi asoratlarga olib kelishi mumkin: surunkali konyunktivit; shox pardada chandiqlar paydo bo'lishi; ko'rish sifatining pasayishi (ko'rlikkacha). Oldini olish : Kelgusida "quruq ko'z" sindromi muammosining oldini olish uchun bemorlarga quyidagilar tavsiya etiladi: yetarli miqdorda suyuqlik iste'mol qilish (kuniga 1,5-2 litr suv); kompyuterda ishlayotganda yoki televizor ko'rayotganda har 40 daqiqada tanaffus qilish; turar joy va ish xonalarini muntazam ravishda shamollatishga; oftobda quyoshdan saqlovchi ko'zoynak yoki keng soyabonli bosh kiyim kiyish.

**Xulosa.** Quruq ko'z sindromi – ko'z yuzasini namlash va himoyalashga mas'ul bo'lgan ko'z yoshi plyonkasi yetishmovchiligi yoki uning sifati buzilishi natijasida yuzaga keladigan keng tarqalgan oftalmologik muammo hisoblanadi. Ushbu sindrom har xil yoshdagi insonlarda uchrashi mumkin bo'lib, hayot sifatini sezilarli darajada pasaytirishi, ko'rish keskinligiga ta'sir qilishi hamda uzoq muddat davom etsa, ko'zning yuza to'qimalariga zarar yetkazishi mumkin. Kasallikning kelib chiqish omillari juda ko'p bo'lib, ekologik sharoitlar, kompyuter va telefon kabi raqamli qurilmalardan uzoq muddat foydalanish, gormonal o'zgarishlar, dorilar, surunkali kasalliklar va yoshlik bilan bog'liq jarayonlar asosiy sabablar qatoriga kiradi. Shuningdek, meybomiya bezlari disfunktsiyasi ko'z yoshi tarkibi buzilishida muhim o'rin tutadi. Quruq ko'z sindromini o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash bemor holatini yengillashtiradi, asoratlardan himoya qiladi va ko'rish funksiyasini saqlashga yordam beradi. Davolash usullari kasallik darajasiga qarab tanlanadi: ko'z yoshi tomchilaridan foydalanish, yallig'lanishga qarshi terapiya, gigiyenik parvarish, hayot tarzini o'zgartirish va zarur hollarda maxsus tibbiy muolajalar qo'llaniladi. Umuman olganda, quruq ko'z sindromi murakkab, ammo to'g'ri tashxis va individual yondashuv orqali samarali nazorat qilinadigan holatdir. Bu borada bemorning o'z vaqtida shifokorga murojaat qilishi va tavsiyalarga rioya qilishi eng muhim omildir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Oftalmologiya – A. Saidov, R. Tursunov. Toshkent, 2019.
- 2.Klinik oftalmologiya – M. Mirzakarimov. Toshkent, 2020.
- 3.Ko'z kasalliklari – A. Isroilov. 2018.
- 4.Akademik tibbiyot: Oftalmologiya asoslari – T. Ochilov. Toshkent, 2021.
- 5.Tibbiyot ensiklopediyasi – 2017.
- 6.Glaukoma va quruq ko'z sindromi – S. Abdug'aniyev, 2022.
- 7.Umumiy amaliyot shifokori qo'llanmasi – R. Axmedov, Toshkent, 2020.
- 8.Ko'z anatomiyasi va fiziologiyasi – M. Mamatqulov. Toshkent, 2016.
- 9.Biologiya va tibbiyot uchun anatomiya – Q. Niyozov, 2015.
- 10.Klinik farmakologiya – N. Rasulov. Toshkent, 2018.
- 11.Ophthalmic Care in Uzbekistan – 2019.
- 12.Sog'liqni saqlash va ko'z salomatligi – F. Sharipova, 2021.